



**STUDY OF THE HISTORY OF INDUSTRIAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN
DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE**

Nilufar Esonova

senior lecturer

University of Economics and Pedagogy

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Industry, food industry, factory, flour industry, wine industry, oil industry, light industry, vegetable canning industry, personnel policy.

Abstract: Historical analysis of the emergence and development of food industries in the southern regions of Uzbekistan and problematic situations in this process is based on scientific sources.

Received: 10.09.24

Accepted: 12.09.24

Published: 14.09.24

**O‘ZBEKISTONDA SANOAT RIVOJLANISHI TARIXINING MUSTAQILLIK
DAVRIDA O‘RGANILISHI**

Nilufar Esonova

katta o‘qituvchi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Sanoat, oziq-ovqat sanoati, zavod, un sanoati, vino sanoati, yog‘ sanoati, yengil sanoat, sabzavot konserva sanoati, kadrlar siyosati .

Annotatsiya: O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatning asl mohiyati xolis yoritilib, oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va mazkur jarayondagi muammoli holatlar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

**ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ
УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ**

Нилуфар Эсонова

старший преподаватель

Университет экономики и педагогики

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Промышленность, пищевая промышленность, заводы, мукомольная промышленность, винодельческая промышленность, нефтяная промышленность, легкая промышленность, овощеконсервная промышленность, кадровая политика.

Аннотация: Объективно освещается истинный характер экономической политики, на основе научных источников основан исторический анализ возникновения и развития пищевой промышленности в южных регионах Узбекистана и проблемных ситуаций в этом процессе.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo'lgan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma'no-mazmuni va xarakteri tubdan o'zgardi. Jahon mamlakatlarida sanoatning jadal taraqqiy etishi, davlatlararo iqtisodiy munosabatlar sohasining chuqurlashishi, xalqaro miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti faoliyati va soha tarixiga qiziqish ortib, u bilan bo'lgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Jahonning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy muassasa hamda oliy o'quv yurtlarida sanoat sohasi tarixi va uning yangi tarmoqlari bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda qo'yilayotgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan uning tarixiga ham bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun soha tarixini chuqur o'rganib, har tomonlama chuqur tahlil qilib, umumlashgan xulosalar yordamida ertangi kun istiqbollari belgilash O'zbekiston tarixi fanining dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, sanoat sohasining 1925 – 1941-yillardagi tarixi eng murakkab va shu bilan bir qatorda qiziqarli mavzulardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda sovet davlati sanoat sohasida ham "sotsialistik qurilish" g'oyasini ilgari surib, tizim faoliyatini yo'lga qo'yishida jiddiy o'zgarishlar qilindi. Ammo bu o'zgarishlar Markaz manfaatlariga muvofiq amalga oshirilib, O'zbekistonning paxta xom ashyosi bazasi sifatida ixtisoslashuvi jarayoni yanada kuchaytirildi. Sanoat qurilishidagi zarur nisbatlar buzilishi, ma'muriy buyruqbozlik, noaniq topshiriqlar, mutaxassis kadrlar tanqisligi, besh yilliklarda asossiz va amalda bajarib bo'lmaydigan vazifalarning belgilanishi kabi holatlar soha faoliyatida salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Istiqlol tufayli O'zbekiston tarixining har bir davri va sohalarini chuqur ilmiy tahlil etish

imkoniyati vujudga keldi. Jumladan, sovet davrida O‘zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy hayoti tarixini keng qamrovli o‘rganib, yakuniy xulosalar chiqarish dolzarb masalalardan biriga aylandi. O‘zbekiston janubiy viloyatlarida amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati, uning maqsadi, mohiyati hamda tarixiy ahamiyati sovet davri adabiyotlarida to‘liq o‘z aksini topmadi.

O‘zbekistonda mustaqillik qo‘lga kiritilgach, tarix fanining barcha sohalarida chuqur mulohaza bilan xolisona fikr yuritish imkoni tug‘ildi. O‘zbekiston tarixini haqqoniy tahlil etish uchun keng yo‘l ochildi.

O‘zbekistonda real dunyoqarash shakllanib, umuminsoniy qadriyatlar qaror topa boshladi. Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekiston tarixi, umuman ma’naviy qadriyatlarni tiklash maqsadida ilm-fan, uning rivoji, ma’naviy hayotining muhim sohalarini rivojlantirish islohotlari amalga oshirilmadi.

Sovet davrida tarixning eng kam o‘rganilgan sahifalaridan biri – O‘zbekiston janubiy viloyatlarda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatidir. Bu mavzu istiqolning dastlabki yillaridayoq siyosatchilar, iqtisodchilar hamda tarixchilarning diqqat markazidagi mavzularidan biriga aylandi. Tarixni haqqoniy va xolisona tarzda tahlil etish O‘zbekiston tarixshunosligining bosh tamoyiliga aylandi.

O‘zbekistonda sanoat sohasi tarixini tadqiq qilish borasida qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda sovet davri sanoati tarixi mavzusi yuzasidan O.Jo‘raqulov, E.Qobulov, J.Ergasheva, M.Xudoyberganov, Q.Turopov, B.Mamatqulov kabi olimlarining risola va monografiyalari e’lon qilindi.

O.Jo‘raqulov va J.Ergashevalarning risolasida Qashqadaryo viloyatida o‘tgan asrning 20 – 40 yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan ishlar yangi nazariy metodologiyaga asoslangan holda bayon etilib, asosiy e’tibor mayda kustar sanoati faoliyatini tahlil etishga qaratiladi. Chunki viloyatda 20-yillarda yagona sanoat korxonasi 79-sonli paxta tozalash zavodi bo‘lib, mazkur korxonada faoliyati risolada atroflicha tahlil etiladi. Mualliflar zavod faoliyatida ta’rif berib shunday deydi: “1926-yilda ishchi-dehqon inspeksiyasi zavodning bir yillik faoliyatini tekshirganda korxonada jamoasi orasida tartib-intizom bo‘shligi, ishchi kadrlarning qo‘nimsizligi, korxonada rahbarlari o‘rtasida turli kelishmovchiliklar borligi aniqlandi. 1925-yilda korxonada direktori uch marta o‘zgargan. Zavodga paxta yetkazib berish uchun Yakkabog‘, G‘uzor, Chiroqchi tumanlarida paxta qabul punkti ochilgan bo‘lib, ularda ham qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan” [1, 37].

Shuningdek, risolada 1927-yil Qashqadaryo okrugidagi kustarchilik artellarining to‘liq ro‘yxati, a’zolarining soni, ishlab chiqarish turlari haqida ham ma’lumotlar beriladi. Ushbu risolada mualliflar tomonidan Qashqadaryo okrugida amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining mohiyati bir qadar asoslangan.

Keyingi yillarda viloyatlarda sanoat sohasining ayrim tarmoqlari tarixiga bag‘ishlangan

risola va monografiyalar ham yaratildi. B. Mamatqulov tomonidan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari paxta tozalash sanoati tarixi tadqiq qilinishi, muallif mazkur viloyatlarda turli tarixiy davrda paxta sanoatining yo'lg'a qo'yilishi, paxta tozalash zavodlari faoliyati, ular tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, ishchilar tarkibi, ularning moddiy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi [2, 26].

H. Turopovning "O'zbekiston paxta tozalash sanoati mustaqillikning o'n yilida" nomli tadqiqotida O'zbekiston paxta tozalash sanoatida 1991-2000-yillarda amalga oshirilgan ishlar xususida fikrlar umumlashtiriladi [3, 101].

Oziq-ovqat sanoatining ayrim tarmoqlari tarixini tadqiq etish yuzasidan ham amaliy ishlar olib borildi.[4, 42] Masalan, 2001-yilda nashr etilgan "История отрасли хлебо продуктов Узбекистана" monografiyasida non va non mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarish masalasi tahlil etiladi.

A. Hamidovning "История энергетика и энергетических предприятий Узбекистана" risolasida sanoatning eng asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan energetika sohasi va uning korxonalar faoliyatini tahlil etish yuzasidan statistik ma'lumotlar keltiriladi.[5, 53]

Istiqlol davrida sanoat sohasi tarixi bo'yicha qator ilmiy maqolalar ham e'lon qilindi.

X.R.Raupovning maqolasida O'zbekistonda ishchilar o'rtasidagi ixtirochi va ratsionalizatorlik harakati tarixini sanoatning yengil va oziq-ovqat sanoati misolida yoritishga harakat qiladi.

O'zbekistonda sovet davrining dastlabki o'n yillarida mayda kustar sanoati, turli hunarmandchilik artellari, ularning a'zolari, yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda kooperatsiyalarning o'rni masalasi A.K.To'xtayevning maqolasida o'z aksini topdi.

J.Ergashevaning O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishiga doir maqolasida mintaqada gaz sanoatining ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashgan holda beriladi.

Sanoat sohasi tarixi iqtisodiy sohaning asosiy tarmog'i sifatida har doim tarixchilar diqqat markazida turdi. Shuningdek, istiqloq yillarida bu mavzuda bir necha dissertatsiya ishlari tayyorlanib, himoya qilindi. O'zbekistonda sanoatlashtirish muammosining tarixiy adabiyotlarda yoritilish masalasi U.Temirovning tadqiqotlarida o'z aksini topdi [6, 24].

U.Temirovning dissertatsiyasida sovet davrida sanoat sohasi tarixiga oid nashr etilgan ilmiy maqola, risola va monografiyalar hamda dissertatsiya ishlari uchta tarixiy davrga ajratilgan holda tahlil etiladi. Respublikada yuqori rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borgan F.Xo'jayev, A.Ikromov kabilarning nutqlari, asarlari, maqolalarida sanoat sohasiga tegishli fikr-mulohazalar o'rganiladi. Shuningdek, B.A. Desyatchkov, K.CH. Bedrinsev, N.Mo'minov, V.Y. Nepomnin, T.S. Melnikova, A.K. Oqilovlarning sanoatning turli yo'nalishlari tarixiga oid risola va

monografiyalari tarixshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil etiladi.

Keyingi yillarda ishchilar sinfining sovet davri tarixini o'rganish yuzasidan qator dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. A.S. Asriyevaning 1992-yili himoya qilingan “Проблема формирование и развитие рабочего класса Узбекистана в исторической литературе (1920 – 1980 гг)” mavzusidagi dissertatsiyasida O'zbekistonda ishchilar tabaqasining shakllanishi va rivojlanishi mavzusining ilmiy adabiyotlarda o'rganilishi yuzasidan izlanish olib bordi [7, 141].

20 – 30 yillarda O'zbekistonda ishchilar tabaqasi, jumladan, sanoat ishchilarining madaniyat rivojlanishidagi o'rni masalasi Y.X. Haydarov tadqiqotlarida o'rganiladi [8, 4].

V.M. Burxonovning “Обеспечение народного хозяйство Узбекистана кадрами руководящих работников: опыт и уроки (20 – 30-е гг)” mavzusidagi dissertatsiyasida xalq xo'jaligining boshqa sohalari qatori sanoat korxonalarini rahbar kadrlar bilan ta'minlash muammosi tadqiq etiladi [9, 49].

Mustaqillik yillarida sanoatda milliy kadrlar tayyorlash mavzusini tadqiq etish borasida ham izlanishlar olib borildi. N.Y. Qodirovaning “Подготовке национальных промышленных кадров в Узбекистане (30-е годы)” mavzusidagi dissertatsiyasi shular jumlasidandir. Dissertatsiyada O'zbekistonda 30- yillarda milliy ishchi kadrlarning shakllanish muammosi, sanoat korxonalarini oliy malakali muhandis-texnik kadrlar bilan ta'minlash masalasi yangi ilmiy qarashlar asosida tadqiq etiladi.[10, 67]

J. Ergashevaning 1998-yil himoya qilingan dissertatsiyasida O'zbekistonda sanoat sohasining yo'lga qo'yilishi va uning turli tarmoqlari faoliyati Qashqadaryo viloyati misolida tadqiq etiladi. Dissertatsiyaning birinchi bobi “Начало создания промышленных предприятий в Кашкадарье (1920 – 1945 гг)” deb nomlanib, bunda viloyatda faoliyat olib borgan yagona paxta tozalash zavodi (Shahrisabzda), mayda kustar hunarmandchilik artellari, ularning a'zolari, ishlab chiqargan mahsulot turlari va hajmi to'g'risida ma'lumot umumlashtiriladi. Ammo dissertatsiyada O'zbekiston viloyatlarida 20 – 30 yillarda sanoat sohasida olib borilgan siyosat to'g'ri asoslanmagan. Masalan, O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hissasi juda past edi. Bu jarayonning kelib chiqish sabablari, oqibatlari dissertatsiyada deyarli tahlil etilmadi. Shunday bo'lsada, dissertatsiyada biz tadqiq qilayotgan mavzuga tegishli ko'plab tarixiy dalillar arxiv hujjatlariga tayangan holda yoritib beriladi.

1925 – 1941-yillarda O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishida milliy hunarmandchilikning salmog'i yuqori edi. Aholining sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji mayda kustar hunarmandlar tomonidan qondirildi. Mustaqillik yillarida “1917 – 1941-yillari O'zbekiston milliy hunarmandchilik va uning sotsialistik asosda sanoatlashtirish” mavzusi A.Q. To'xtayev tomonidan maxsus tadqiq etildi. Dissertatsiyada O'zbekistonda bolsheviklar tomonidan milliy hunarmandchilik sohasida amalga oshirilgan ishlarga mazmun-mohiyati jihatdan yangicha baho

beriladi. Muallif birinchi marta yangi manbalar asosida O‘zbekistonning janubiy viloyatlari hunarmandchiligi va uning tarmoqlaridagi o‘zgarishlar jarayoni va o‘ziga xos muammolarini mamlakat tarixshunosligida yaxlit tarzda xolisona o‘rganishga harakat qiladi. Shuningdek, dissertatsiyada hunarmandchilik kooperatsiyalarining vujudga kelishi va ular faoliyatidagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlar, hunarmandchilik artellarining tarixiy o‘rni va ahamiyati, hunarmandchilik sanoatini yangi texnika va zamonaviy texnologiya bilan jihozlashdan ko‘zlangan maqsad, bu soha uchun kadrlar tayorlash, ularning malakasini oshirish, turmush darajasini yaxshilash tajribalarini tahlil qilishga harakat qilinadi.[12, 74]

XULOSA

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati tarixi tarixshunosligini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, shu kunga qadar ham ushbu mavzuda fundamental ishlarni yaratilish ko‘lami kam. Qolaversa, bu mavzuda dissertatsiya ishlari ham kam himoya qilinmoqda.

O‘zbekistonda sanoatlashtirish siyosati sovet davri iqtisodiy hayotini o‘rganish natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bu davrda yaratilgan ilmiy maqolalar, adabiyotlar va dissertatsiya ishlarida asosiy e’tibor sanoat sohasidagi jadallashtirish siyosati, sohadagi o‘sish sur’atlari, ishchilar sonining ortishi, fabrika va korxonalar sonining yildan yilga ko‘payganligi bilan izohlanib, sanoatlashtirish siyosati mohiyati xolislik va haqqoniylik nuqtayi nazardan o‘rganilmagan. Mustaqillik davrida barcha sohalar tarixi ilmiy jihatdan yangi nazariy metodologiyaga tayangan holda talqin etishga kirishilib, soha tarixi bo‘yicha ilmiy maqolalar, yangi adabiyotlar, dissertatsiya ishlari bajarildi. O‘zbekiston iqtisodiy hayoti, jumladan, sanoat sohasi tarixiga bag‘ishlangan ishlar salmog‘i ko‘p bo‘lsada, ammo ularda ayrim kamchiliklar ham mavjud bo‘ldi. Shuningdek, tadqiqotlarning birortasida 1920-1940-yillarda O‘zbekiston sanoat sohasi tarixi maxsus tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinmagan. Sovet davri tadqiqotlarida besh yillik rejalar davrida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tarixchilar mamlakatning sanoatlashuviga baho berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jo‘raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996. – B. 32.
2. Mamatqulov, B. (2023). O‘zbekiston gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va uning rivojlanish tarixi (Qashqadaryo viloyati misolida). *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари*, 12(1), 3.
3. Mamatqulov B.SH.O‘zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlarini (1925-1941-yy.); Monografiya. T.: “Lesson Press” MCHJ nashriyoti. - 2023. - 134 b.

4. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 158-161).

5. Mamatkulov, B., 2021. Conflicts of the process of the industrial staff training in the soviet period. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), pp.507-510.

6. Baymanovna, A. R., & Isxoq o'g'li, Q. M. (2024). O 'ZBEKISTON BILAN HINDISTON O 'RTASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 31-34.

7. Mamatqulov B. O'zbekiston gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va uning rivojlanish tarixi (Qashqadaryo viloyati misolida) // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. - №12/1(3)-2023. ISSN: 2181-1342 (Online) <https://scienceproblems.uz>

8. Baymanovna, A. R., & Eshqobil o'g'li, M. B. (2024). ESTABLISHMENT OF CULTURAL RELATIONS BETWEEN STATES AND ITS HISTORICAL BACKGROUND. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 40(5), 27-30.

9. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEKANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.

10. Mamatkulov, B. (2021). Conflicts of the process of the industrial staff training in the soviet period. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 507-510.

11. Mamatqulov, B. "O 'zbekiston gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va uning rivojlanish tarixi (Qashqadaryo viloyati misolida)." *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари* 12.1 (2023): 3.

12. Esanova, Nilufar. "QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEKANIZMINING YARATILISHI." *Interpretation and researches* (2024).